



BADIIY ASARLARDA SHEVAGA OID SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHI VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Toshpo‘latova Barchinoy

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *Yozuvchi yaratayotgan badiiy asarini har tomonlama mukammal badiiy asar bo‘lishligi uchun turli xil bo‘yoqdor so‘zlar, iboralar, maqol va matallardan foydalanadi. Badiiy asar tilining yanada ishonarli va jonli tasvirlashga xizmat qiladigan unsurlardan biri bu shevaga oid so‘zlar hisoblanadi. Ushbu maqolada shevaga oid so‘zlarning badiiy asarlarda qo‘llanilish o‘rinlari va ularning leksik-semantik xususiyatlari tahlilga tortilgan. Tahlilda Tog‘ay Murodning asarlarida keltirilgan shevaga oid so‘zlarning qaysi ma‘noda qo‘llanilishi ko‘rib chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *Sheva, adabiy til, leksik ma‘no, semantik ma‘no, milliy kalorit, etnografik dialektizm, grammatik dialektizm, fonetik dialektizm.*

Sheva forscha so‘z bo‘lib, "ovoz", "til", "so‘zlashish", "odat", "yo‘sin", "ravish" degan ma‘nolarni bildiradi. Fanda u o‘ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan milliy (xalq) tilning kichik territoriyasiga (hudud) oid qismni anglatadi.

Yozuvchilar badiiy asarda yaratayotgan qahramonlarni o‘zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so‘zlarni qo‘llaydilar. Sheva so‘zlari mahalliy kaloriya, hududiy mansublikni o‘zida aniq aks ettirish bilan birga "badiiy matnda muayyan estetik funksiyani bajaradi. Biroq, dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi, ularning badiiy nutqdagi me‘yori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo‘llanilishi bilan bog‘liqdir". Tilshunoslikka oid adabiyotlarda shevaga oid birliklar fonetik, leksik va grammatik dialektizmlar sifatida tasnif qilinadi. Fonetik dialektizmlar asosan, tovushlarni o‘zgartirib qo‘llash, tovush orttirishi, tovush tushishi va tovushlarni qavvatlab qo‘llash ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Masalan: Do‘xtir xotin: "Me‘dangiz aynigan xola, gastrit bo‘lgansiz", deb qo‘ya bo‘ldi. Bannisaga yotqizishga order kerak ekan. (O‘. Hoshimov). Manaman degan obkomlar-u, raykomlarni, raislar-u bug‘altirlarni g‘ippa yoqasidan oldi! (O‘. Hoshimov). Zebining qish ichi siqilib, zanglab chiqqan ko‘ngli bahorning iliq hovuri bilan ochila tushgan; endi ustiga poxol to‘shalgan aravada bo‘lsa ham, allaqaylarga tala-qirlarga chiqib yayrashni tusay boshlagan edi. Adabiy til me‘yorlariga asoslangan, barcha uchun birdek tushunarli, biron bir so‘zning turli hududlarda turlicha qo‘llanilishi leksik dialektizmlarni hosil qiladi. Leksik-so‘zdan anglashilgan ma‘no demakdir.

Masalan: adabiy me‘yorlariga asoslangan "narvon" so‘zi Samarqand, Farg‘ona kabi viloyatlarda "shoti" tarzida qo‘llaniladi. Xorazm viloyati, leksik dialektizmlarni qo‘llashda salmoqli o‘rinni egallaydi. Negaki, u viloyatda qo‘llaniladigan so‘zlar adabiy tilda tubdan farq qiladi. Masalan:



sabzi-gashir,yostiq- taka,guruch -birinch kabi.Leksik dialektizmlar o‘z navbatida ichki guruhlarga bo‘lib o‘rganiladi.1.sof leksik dialektizmlar; 2.etnografik dialektizmlar; 3.semantik dialektizmlar.

Kampir shotining yog‘ochini silab o‘ynar,Enaxon og‘zidan olgan saqichni ezib "soqqa" yasar.(Cho‘lpon). Etnografik dialektizmlar muayyan sheva tarqalgan hududda yashovchi kishilarning o‘zlariga xos bo‘lgan urf- odatlarining nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlardir.Masalan: U eshikdan kirar-kirmas to‘y-to‘qqizini xotiniga uzatib : - Qizing qani ? - deya so‘radi.

(Cho‘lpon). Adabiy tilda ham ,shevada ham mavjud bo‘lgan biron bir so‘z ,shevada adabiy tilda bo‘lmagan bo‘lmagan ma‘nosi bilan qo‘llanilishi semantik dialektizmlarni hosil qiladi.Masalan: Men buvimdan (onamdan) beruxsat mehmon chaqirmayman.(Cho‘lpon). Semantik dialektizmlarga yorqin misol Xorazm viloyati ,Xonqa tumanida yashovchi aholi vakillarining " ota" ga nisbatan " aka" yoki " piyola " so‘ziga nisbatan " kosa " so‘zining qo‘llanilishini ko‘rishimiz mumkin. Grammatik dialektizmlar so‘z qurilishi bilan bog‘liq dialektizmlardir.Ular ham o‘z ichida morfologik va sintaktik dialektizmlarga bo‘linadi.Masalan: Qurvonbibi bu haqiqatni o‘zi o‘z ko‘nglida necha marta takrorlagan bo‘lsaykin.(Cho‘lpon).Bilamiz ,taqsir,yangi uylangan odamdi gapga tutib bo‘lmaydi.

Tog‘ay Murod asarlarida har bir so‘zdan mohirona foydalangan,qisqa so‘zlardan gapning umumiy mazmunini chiqargan ,fikrini aniq va lo‘nda ifodalagan ham o‘z fikrlarini oddiy xalq tilidan bayon etgan buyuk iste‘dod egasi hisoblanadi.U o‘z asarlarida shevalardan unumli foydalanadi .Uning asarlari sof milliy o‘zbek asarlaridir. U asarlarida yaratgan qahramonlarga boshqa xalqning libosini kiydirsangiz ham o‘zbekligi bilinib turadi. Bu o‘z navbatida,shevalardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanganlikdan dalolat beradi.

Adib asarlarida leksik dialektizmlar: 1.Xirmonchi chollar Bo‘riga galagov(xirmon yanchuvchi asbob) haydattirmadi.(Yulduzlar mangu yonadi).

2.Ota-onasining so‘nggi zurriyodi bo‘lmish qiz besh yosharligida sag‘ir(yetim)qoladi.(Oydinda yurgan odamlar)

3.Yangamga(kelinoyi) yaxshi ko‘rinayin deb o‘ziday - o‘ziday satillarda (chelak)suv tashiydi.(Oydinda yurgan odamlar)

4.Kechgacha to‘rtta jo‘yakning (ekish usuli,ikkita pushta o‘rtasidagi ariq)tokini kesdi.(Oydinda yurgan odamlar)

Grammatik dialektizmlar:

5.O‘zi ular muloyim xalq-da , - dedi Bo‘ri polvon o‘ziga .Juda muloyim olishlariyam o‘z tabiatidan kep chiqadi.(Yulduzlar mangu yonadi)

6.Nima gapligini payqadi ho‘ng-ho‘ng yig‘lab qo‘ya berdi.

7.Tong hadeganda otabermadi (Oydinda yurgan odamlar)

Fonetik dialektizmlar:

8.Xa,polvon bova-e ,Xasan Sultonov polvon bo‘lganda otini esingizdan chiqarmasdingiz-a....(Yulduzlar mangu yonadi)



9. Toboqlarning birida palov ,birida qovurma go'sht ,birida qaynatilgan tuxum yana birida shirguruch. (Oydinda yurgan odamlar)

10. Bo'ri polvon belbog'ingni yaxshilab boyla, bo'shab ketyapti. (Yulduzlar mangu yonadi)

11. Bolalar ,manovi Shukur polvon bilan olishadigan mard bo'lsa o'rtaga chiqsin. (Yulduzlar mangu yonadi)

Bundan tashqari adib asarlarida etnografik dialektizmlardan ham unumli foydalanganini ko'rishimiz mumkin. Masalan: To'y oxirladi .It g'irillatar, kampir o'ldi, soch siypatar, qo'l ushlatar , oyna ko'rsatarlar bo'ladi.

Yuqorida "Oydinda yurgan odamlar" asaridan olingan misol orqali Surxondaryo viloyatining to'y marosimlarida o'tkaziladigan urf -odatlar haqida bilib olishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarlarda shevaga oid so'zlardan foydalanish asarning mukammal bir sa'nat asari bo'lishligini ta'minlab beradi. Albatta, bu yozuvchidan juda katta mahorat talab qiladi . Tog'ay Murod o'z asarlarida fonetik, leksik va grammatik dialektizmlardan unumli foydalangan hamda yaratgan qahramonlari orqali mahalliy hududning so'zlashuv nutqiga xos milliy kaloritini ochib bergan , o'ziga xos ijodkor uslubiga ega yozuvchi ekanligidan dalolat beradi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M. Yo'ldoshev, Z. Isaqov, Sh. Haydarov . Badiiy matnning lisoniy tahlili . Toshkent 2010
2. Samixon Ashirboyev . O'zbek dialektologiyasi
3. X. Abdurahmonov , N. Mahmudov . So'z estetikasi . - Toshkent: Fan ,1981. - B.24.
4. O'tkir Hoshimov . " Tushda kechgan umrlar" 3 ; 25 - bet
5. Tog'ay Murod . " Yulduzlar mangu yonadi" - Toshkent: Ziyonashr.2020
6. Tog'ay Murod . " Oydinda yurgan odamlar" - Toshkent: Ziyonashr.2020